


O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI NUKUS “TEMURBEKLAR MAKTABI” HARBIY - AKADEMIK LITSEYI



Harbiy-akademik litseyga nomzodlarni tanlash va o‘qishga qabul qilishni tashkil etish

Nukus “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyiga nomzodlarni tanlash va o‘qishga qabul qilish uchun O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi (keyingi o‘rinlarda – vazirlik), Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Toshkent shahar va Toshkent viloyati ichki ishlar bosh boshqarmalari, viloyatlar ichki ishlar boshqarmalari (keyingi o‘rinlarda – hududiy ichki ishlar organlari) hamda harbiy-akademik litseyning rasmiy veb-sayti va ommaviy axborot vositalari orqali tanlov e‘lon qilinadi. Unda ariza qabul qilinadigan manzil, tanlovni o‘tkazish muddatlari va joyi, o‘qishga qabul qilish shartlari hamda tanlovni o‘tkazish bilan bog‘liq boshqa ma’lumotlar aks ettiriladi.

Nukus “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyiga o‘qishga qabul qilish bo‘yicha targ‘ibot va dastlabki tanlov bosqichi tadbirlari hududiy ichki ishlar organlarida tuziladigan ishchi guruhlar tomonidan tashkil etiladi hamda amalga oshiriladi.

Ishchi guruhlar o‘z faoliyatini qabul yilidan oldingi yilning sentabr oyining birinchi ish kunidan keyingi yilning sentabr oyining birinchi ish kuniga qadar amalga oshiradi.

Test sinovlari

Test sinovlari O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan o‘rnatilgan tartibda o‘tkaziladi.

Test sinovlari O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi **tomonidan amalga oshiriladi.**

Test sinovlari uch tilda - o‘zbek, rus va qoraqalpoq tillarida o‘tkaziladi.

Test topshiriqlari umumiy o‘rta ta‘limi fanlari (5-9 sinflari kesimida) ning Davlat ta‘lim standartlariga muvofiq tuziladi.

Test sinovlarini o‘tkazish sanasi, joyi va vaqti Bilim va malakalarni baholash agentligi bilan kelishilgan holda belgilanadi. **Test sinovlarini tashkillashtirish va o‘tkazish bo‘yicha javobgarlik joylardagi** Bilim va malakalarni baholash agentligi vakillari va hokimiyatlar tomonidan tayinlangan auditoriya rahbarlari zimmasiga yuklatiladi.

Belgilangan vaqtda test sinovlariga kelmagan abituriyentlar uchun qo‘shimcha test sinovlari o‘tkazilmaydi.

Nukus “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyiga kirish imtiyozlari

O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim muassasalariga qabul qilish bo‘yicha Davlat komissiyasining qaroriga muvofiq dastlabki va harbiy-kasbiy tanlovdan muvaffaqiyatli o‘tgan quyidagi nomzodlar harbiy-akademik litseyga test sinovlarisiz tanlovdan tashqari o‘qishga qabul qilinadi:

- xalqaro va respublika fan olimpiadalarining g‘oliblari-belgilangan qabul kvotasi doirasida;

- o‘z xizmat vazifasini bajarish chog‘ida hlok bo‘lgan hamda jarohatlanish (shikastlanish) natijasida nogiron bo‘lib qolgan harbiy xizmatchilar, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari va Favqulodda vaziyatlar vazirligi qutqaruv bo‘linmalari xizmatchilarining farzantlari –kvotadan tashqari;

- yetim, ota-ona qarovisiz qolgan, ijtimoiy nosog‘lom oilalarda yashayotgan, davlat va jamiyat ko‘magiga muhtoj bo‘lgan, joriy yilda umumta‘lim maktablarning 9-sinfini tamomlagan Voyaga yetmagan yoshlar bilan ishlash bo‘yicha hududiy idoralararo komissiya tavsiyasi hamda tegishli vazirlik va idoralar rahbarlarining qarorlariasosida kvotadan tashqari, belgilangan kvotaning 5 foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda.

Nukus “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyi o‘quvchilarini qabul qilish.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan o‘tkazilgan test sinovlarining natijalari O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim muassasalariga qabul qilish bo‘yicha Davlat komissiyasi belgilagan muddatlarda O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim muassasalariga qabul qilish bo‘yicha Davlat komissiyasiga hamda Nukus “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyi qabul komissiyasiga taqdim etiladi.

Q A B U L S H A R T L A R I

Umumiy qoidalar

Nukus “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyiga joriy yilda umumta‘lim va ixtisoslashtirilgan maktab-internat maktablarining (keyingi o‘rinda-umumta‘lim maktablar) 9-sinfini tamomlaganlik to‘g‘risidagi shahodatnomaga ega, sog‘lig‘ining holatiga ko‘ra o‘qishga yaroqli deb topilgan hamda haqqoniy va shaffoflik tamoyillariga asoslangan saralash tanlovidan muvaffaqiyatli o‘tgan, **erkak jinsli** O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari o‘qishga qabul qilinadi.

O‘qish muddati - 2 yil.

Nukus “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyini tamomlagandan keyin bitiruvchilariga belgilangan namunadagi diplom va ko‘krak nishonlari beriladi .

Hujjatlar tayyorlash va qabul qilish tartibi:

Nukus “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyiga o‘qishga kirish istagini bildirgan nomzodlar o‘zlarining doimiy yashash joyidagi hududiy ichki ishlar organlariga ta’lim yo‘nalishini ko‘rsatgan holda, mazkur Nizomning 1-ilovasiga muvofiq shakldagi ariza bilan murojaat qiladi. **Har yili 1 apreldan 30 aprelga qadar o‘tkaziladi.**

Dastlabki tanlov tadbirlari hududiy ichki ishlar organlarida kichik komissiya tomonidan qabul yilining 1 may kundan 30 may kungacha qadar o‘tkaziladi.

Dastlabki tanlov tadbirlarini tashkil etishda hududiy ichki ishlar organlari zimmasiga quyidagi vazifalar yuklatiladi:

Nukus “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyiga o‘qishga kirish istagini bildirgan nomzodlar tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni o‘rganish;

yakka tartibda dastlabki suhbat o‘tkazish;

nomzodlarning individual-psixologik xususiyatlarini o‘rganish;

tibbiy komissiya ko‘rigidan o‘tkazish;

dastlabki tanlov yakuni bo‘yicha nomzodlarning shaxsiy hujjatlar yig‘ma jildini va tanlov natijalarini o‘rganish hamda ularni harbiy-kasbiy tanlovga qo‘yish masalasini hal etish.

Dastlabki tanlov tadbirlarida ishtirok etadigan nomzodlar soni cheklanmaydi.

Dastlabki tanlov tadbirlarini tashkil etish bo‘yicha kichik komissiya tomonidan harbiy-kasbiy tanlovda ishtirok etishga ruxsat berilgan nomzodlarning ro‘yxatini hamda har bir nomzod bo‘yicha shaxsiy yig‘majildlarni qabul yilining 1 iyun kungacha qadar to‘liq shakllantiradi va qabul komissiyasiga taqdim etadi.

Harbiy-kasbiy tanlovning tadbirlari quyidagilardan iborat:

taqdim qilingan nomzodga tegishli hujjatlar va uni tavsiflovchi ma’lumotlarni o‘rganish;

nomzodlarni yakuniy tibbiy tekshiruvdan o‘tkazish;

nomzodning savodxonlik darajasini (orfografiya va punktuatsiya) baholash;

nomzodlarning psixofiziologik xususiyatlarini o‘rganish;

nomzodlarning jismoniy tayyorgarlik darajasini aniqlash;

nomzod bilan yakka tartibda yakuniy suhbat o‘tkazish va nomzodlarni test sinovlariga qo‘yish to‘g‘risida yakuniy qaror qabul qilish.

Harbiy-kasbiy tanlov tadbirlari tegishli qabul komissiyasi raisining buyrug‘i bilan tasdiqlanadigan kichik komissiyalar tomonidan har yili 1 iyundan 25 iyun kungacha qadar o‘tkaziladi.

Arizada nomzodning familiyasi, ismi, otasining ismi, tug‘ilgan yili va oyi, turar joyining manzili, Nukus

“Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyining nomlanishi, ko‘rsatiladi. Arizaga tarjimai holi, o‘qish, yashash joyidan tavsiyanoma, to‘g‘ilganlik haqidagi guvohnoma yoki pasport nusqasi, mudofaa ishlarida ro‘yhatda turish to‘g‘risidagi ma’lumotnoma nusqasi fanlarni o‘zlashtirishi to‘g‘risidagi o‘qish

joyidan direktor tomonidan tasdiqlangan ma’lumotnoma 3,5 x 4,5 sm o‘lchamdagi 4 ta, 3 x 4 sm o‘lchamdagi 6 ta rangli fotosurat (bosh kiyimsiz va burchaksiz) hamda 9 x 12 sm o‘lchamdagi 2 ta

rangli fotosurat (bosh kiyimsiz). tasdiqlangan fotosurat ilova qilinadi.

Jismoniy tayyorgarlik darajasini aniqlash bo'yicha sinovni baholash MEZONLARI

1. Nomzodlarning jismoniy tayyorgarlik darajasini aniqlash bo'yicha sinov natijalari "5" ballik tizimda quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

Mashqlar nomi	Bajarish ko'rsatkichi	Sinov natijalarini baholash mezonlari			
		5 ball	4 ball	3 ball	0 ball
to'sinda (turnikda) tortilish	marta	9	7	5	5 dan kam
100 metrga yugurish	soniya	14,5 gacha	14,6 dan 15 gacha	15,1 dan 15,3 gacha	15,3 dan ortiq
2000 metrga yugurish	daqqa	9	9,1 dan 9,30 gacha	9,31 dan 9,45 gacha	9,45 dan ortiq

2. Nomzod jismoniy tayyorgarlik mashqlarini bajargandan so'ng, unga har bir mashq uchun qo'yilgan ballari umumlashtirilib nomzodga o'rtacha arifmetik ball qo'yiladi. Bunda jismoniy tayyorgarlik mashqlari uchun qo'yilgan ballar yig'indisi quyidagicha hisoblanadi:

14 — 15 ball to'plaganda — **"5" ball;**

11 — 13 ball to'plaganda — **"4" ball;**

6 — 10 ball to'plaganda — **"3" ball;**

6 dan kam to'plaganda — "0" ball.

3. Nomzodga jismoniy tayyorgarlik darajasini aniqlash bo'yicha sinovda 2 ta mashqni "0" ballga bajarganda, nomzodga "0" ball qo'yiladi.

Harbiy-akademik litsey o'quvchilari uchun yaratilgan shart-sharoitlar va qaror asosida beriladigan imtiyozlar

Harbiy-akademik litseyda o'quvchilarga sifatli ta'lim-tarbiya berish uchun o'quv va laboratoriya xonalari, kompyuter sinfi, axborot-resurs markazi, elektron kutubxona, saf maydoni, kichik futbol maydoni hamda sport zal to'liq jihozlangan.

Shuningdek, o'quv jarayoni to'liq kazarma shaklida bo'lib, 200 o'ringa mo'ljallangan yotoqxonada o'quvchilarga munosib shart-sharoitlar yaratilib berilgan. O'quvchilarni bepul kiyim-kechak va kuniga 4 mahal oziq-ovqat bilan ta'minlash yo'lga qo'yilgan.

Harbiy-akademik litsey namunaviy yuqov rejaga asosan akademik litseyda "Avtotransport vositalari haydovchilarini tayyorlash ("B" va "C" toifadagi) fanining o'tilishi yo'lga qo'yilib, litsey bitiruvchilariga "B", "C" toifasidagi haydovchilik guvohnomasi beriladi.

Harbiy-akademik litsey bitiruvchilariga qaror asosida oliy harbiy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishda bitiruvchining test sinovlarida to'plagan balning 30% miqdorida, fuqarolik oliy ta'lim muassasalariga o'qishda kirishda bitiruvchining test sinovlarida to'plagan balning 15% miqdorida imtiyoz beriladi.

Nukus "Temurbeklar maktabi" harbiy-akademik litseyi o'quvchilarining kiyim-bosh namunalari

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
NUKUS "TEMURBEKLAR MAKTABI" HARBIY-AKADEMIK LITSEYI



Qish mavsumi uchun kundalik kiyim bosh



Bahor (kuz) mavsumi uchun kundalik kiyim bosh



Yoz mavsumi uchun kundalik kiyim bosh

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
NUKUS "TEMURBEKLAR MAKTABI" HARBIY-AKADEMIK LITSEYI



Bahor (kuz) mavsumi uchun bayromana kiyim bosh



Yoz mavsumi uchun bayromana kiyim bosh



Yoz mavsumi uchun bayromana kiyim bosh

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
NUKUS "TEMURBEKLAR MAKTABI" HARBIY-AKADEMIK LITSEYI



Dala kiyim bosh



Bahor (kuz) mavsumi uchun sport kiyim bosh



Yoz mavsumi uchun sport kiyim bosh

Nukus "Temurbeklar maktabi" harbiy-akademik litseyilari o'quvchilarini tag'dirlash nishonlari va ularni takish tartibi

Old tomonidan kurinishi

Orqa tomonidan kurinishi







TEMURBEKLER MEKTEBI



Telegram

